



CHET TILINI O`QITISH METODIKASIGA AYRIM SHARHLAR

Paluanova M.P.

Qoraqalpoq davlat universiteti,
nemis tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8337555>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-September 2023 yil
Ma'qullandi: 08-September 2023 yil
Nashr qilindi: 12-September 2023 yil

KEY WORDS

*metodika, innovatsiya, chet tili,
kommunikatsiya, ko`nikma,
malaka, didaktika,
madaniyatlararo muloqot.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada chet tili o`qitish metodikasi haqida, uning fan sifatida rivojlanish tarixi, chet tili o`qitish metodikasida qo`llanilib kelinayotgan zamonaviy metod turlari va ulardan foydalanish borasida so`z boradi.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo`nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsiya-inglizcha "yangilikni kiritish (tarqatish)" ma'nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo`lgan munosabati va boshqalarni o`rgangan. Ilmiy yo`nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o`zaro farqalanadi. "Yangilik"- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma'nosini anglatadi. "Innovatsiya"- bu ta'lim, ma'lum bosqichlari bo`yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab rivojlanib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorumizga ham o`z ta'sirini o`tkazdi. Ilm dunyoyimizga ilg`or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilayotgani sir emas. Buning ijrosi sifatida, yurtboshimiz tomonidan joriy yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlanishi ham mamlakatimiz yoshlarining ma'suliyatini yanada oshirdi. Ta'lim sohasiga ilg`or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o`rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi desak xato bo`lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til o`rganish kishilik jamiyatida bag`oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo`lmish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o`rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko`p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o`quvchi va talabalar odatda uch tilni o`rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o`taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so`z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo`shnilar tili sifatida qaraladi.

Chet til-bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o'rganish va o'rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet tili o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Chet tili o'qituvchisi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi-talabanning to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarini samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarni o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan chet til o'qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo'llanilishiga bog'liqdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Chet til o'qitish metodikasida hozirda madaniyatalararo muloqot iborasi keng qo'llanib kelinmoqda. Aynan bu tushunchani biz turli xildagi kontekstlarda qo'llashimiz mumkin. Aslida esa: Madaniyatlararo muloqot-turli madaniyat vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi, mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, urf- odatlari, qadriyatlarini sistemasi va boshqalar tog'risidagi muloqoti-ma'lumotidir. Mazkur jarayonda o'quvchi-talabalarni o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga nisbatan hurmat, sabr-toqat qilish va o'zga mamlakat madaniyatini tog'ri tushunish ruhida tarbiyalab, rivojlantirib borish lozim.

Har bir chet tili darsi madaniyat chorrahasi, madaniyatlararo muloqot amaliyoti hisoblanadi. Chunki mazkur jarayondagi har bir chet tilidagi so'z chet el hayotini va madaniyatini o'zida aks ettiradi. O'qituvchilar oldidagi vazifa o'quvchi va talabalarning kommunikativlik, muloqotga kirisha olish qobiliyatini o'stirishdan iborat. Buning uchun kishilarni samarali muloqot qilishiga o'rgatuvchi o'quv qo'llanmalar va chet tildagi to'rtta nutq faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limning yangi metodlarini o'zlashtirish zarurdir.

Madaniyatlararo muloqot formulasi sabrlik, bag'rikenglik hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotda ijtimoiy-madaniy xatolarga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. Masalan, nemis xalqida, "Tee oder Kaffee?" ya'ni "choymi yoki kofemi" degan savolga ona tilimizda, "Tee", "choy"- deb javob beramiz, lekin nemis tilida esa bunday javob tog'ri kelmaydi. Nemis tilida, "Bitte, Tee" ya'ni, "Marhamat, choy" deb javob beriladi. So'z kishilarni muloqot orqali bir-biriga bog'laydi.

Yangi materialni bir vaqtning o'zida barcha nutq faoliyati turlarida qo'llash natijasida malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bu jarayonda kommunikativ vositalar, ko'rgazmalilik, zamonaviy texnologiya turlari, usullari, izchillik prinsipi ta'minlansa, ta'limning sifati va samaradorligi oshib boraveradi.

O'qituvchi-muallimning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun nafaqat predmetli, pedagogik va psixologik bilimlar, balki yana boshqa alohida xususiyat- muloqot qila olish ko'nikma va malakalari ham, albatta, zarur hisoblanadi.

Inson go'dakligidan boshlab muloqot malakalarini egallay boshlaydi. Ammo katta bo'lganidan keyin hamma ham kerakli darajada muloqot o'rnata olmaydi. Pedagoglik kasbi o'z xususiyatiga ko'ra „inson-inson“ tipidagi kasblar sirasiga kiradi va shuning uchun ham muloqot qila olish ko'nikmasi pedagog uchun yetakchi, kasbiy muhim ko'nikmalardan

sanaladi. Pedagogning o'quvchilar bilan olib boradigan muloqot va muomalasiga qarab bolalarning o'quv predmetiga qiziqishi, demakki, o'quv motivlari shakllanadi. Pedagogik muloqot usuli o'quvchilar tomonidan predmetli bilim, ko'nikmalarning natijaviyligi, shaxslararo munosabat madaniyatiga ta'sir ko'rsatadi, ta'lim jarayonida o'ziga xos axloqiy-psixologik iqlimni vujudga keltiradi. Muloqot shaxs ijtimoiylashuvining muhim sharti hisoblanadi. Shu o'rinda pedagogik muloqot aslida nima ekanligini bilish zarur hisoblanadi.

Pedagogik muloqot-bu o'qituvchi va tarbiyalanuvchining o'zaro hamkorligi bo'lib, u o'zaro axborot, eng avvalo o'quv axboroti, almashinishiga asoslanadi, pedagogik muloqot sherigini anglashga, shuningdek, o'zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga yordam beradi. Bunda axborot ham verbal ya'ni, nutq orqali, ham noverbal-vositalar orqali yetkaziladi. Pedagogik muloqot jarayonida o'qituvchi asosiy rolni o'ynashi va o'quvchilar uchun namuna bo'lishi lozim. Bu uning kommunikativ madaniyati bilan baholanadi.

O'qituvchining kommunikativ madaniyati-bu uning o'quv-tarbiya jarayoni subyektlari bilan professional-pedagogik muloqotdir. Kommunikativ madaniyatning zaruriy darajasi sifatida shuni belgilash mumkinki, bunda o'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilari va hamkasblarini ijobiy qabul qila oladi hamda ta'lim va tarbiya maqsadlariga erishishni so'zsiz ta'minlay oladi. Kommunikativ madaniyatning ijtimoiy ahamiyati shundaki, uni egallagan o'qituvchi ta'lim jarayoni barcha subyektlari o'zaro munosabatlarida ijobiy psixologik iqlimni yarata oladi, ta'limni modernizatsiyalashning muhim prinsiplari bo'lmish-insonparvarlik va demokratlashtirishni amalga oshiradi. Shaxsiy ahamiyati shundaki, kommunikativ madaniyatga ega bo'lgan pedagogning o'ziga ishonchi yuqori bo'ladi, tarbiyalanuvchisi bilan qurilgan muloqotdan zavqlanadi, tanlangan ish faoliyatida o'zini erkin his etadi. O'qituvchi kommunikativ madaniyati tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1.Kommunikativ ko'nikmalar;
- 2.Pedagogning muloqotga kirishuvchanligi;
- 3.Pedagogning muloqot madaniyati;
- 4.Pedagogik muloqot metodlari.

Kommunikativ ko'nikmalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1.Ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar. Ular o'quvchilarni muloqotga kirishish uchun tayyorlaydi, ijobiy taassurot uyg'otadi, har bir o'quvchi shaxsini, uning mavqei darajasini qabul qilishiga, shaxslararo munosabat rivojini bashorat qilishga yordam beradi, psixologik ta'sir vositalarini qo'llashga, ishontirish, singdira olish, identifikatsiya qilishga imkon yaratadi;

2.Axloqiy-estetik ko'nikmalar. Bu muloqotni insonparvar, demokratik asosda ko'ra olish, kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya qilish, har bir o'quvchining shaxs sifatidagi qadr-qimmatini o'rniga qo'yish, o'quvchilar jamoasi va har bir o'quvchi bilan ijodiy hamkorlikni o'rnata olish ko'nikmalari sanaladi;

3.Eстетik ko'nikmalar. Bu ichki va tashqi holatlarni uyg'unlashtira olish, artistlik qobiliyatiga ega bo'lish, estetik ifodalanganlik, o'smirlarni muloqotning yuqori madaniyatligiga jalb qilish, ularning emotsional kayfiyatini, optimistik idrokini faollashtirish bilan belgilanadi;

4.Texnologik ko'nikmalar. Bu o'quv-tarbiya vositalari, metodlar, usullar o'zaro hamkorligining turli shakllarini tanlay olish, muloqotni boshqarishning optimal metodini tanlash, pedagogik nazokatga rioya qilish, uning tarbiyaviy samaradorligini oshirish bilan belgilanadi.

XULOSA

Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet til o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi.

Kommunikativ didaktika metodini qo'llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi. Chet til o'rganish natijasida o'zga mamlakat madaniyati ham o'zlashtiriladi. Chet til ta'limida kerakli bilimlarni egallash uchun "mashqni tashkil qilish texnologiyasi" muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha bilimlarni o'zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat chet til ta'limida balki barcha soha bilimlarini o'zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etish, unda pedagog faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'zni beqiyosdir. Chet til o'rganish jarayonini kommunikativlikka yondashgan holda tashkil qilish, keyingi bosqich madaniyatlararo muloqot darajasiga yetkazish, bunday natijalarga erishish uchun esa, so'nggi qadam, "mashq texnologiyasi"ga e'tibor qaratish muhim. Chet til o'rgatish jarayonini natijaviy tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlar egallash lozim.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavqat Miromonovich Mirziyoyev. Toshkent sh. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. *Science and Education*, 7(7), 215-220.
2. Juraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi. *Science and Education*, 1(Special Issue 4).
3. Sultanova, S. R., & Nematov, S. X. (2023). FEATURES OF TURGENEV HEROINES IN THE APPEARANCE OF A MODERN GIRL. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(16), 113-117.
4. Sevara, S., & Timur, A. (2021). GENERAL THEORY OF LINGUISTIC VARIATION. Chief Editor.
5. Sultanova, S., & Akhmadzhonov, M. (2023). THE PROBLEM OF THE «LITTLE MAN» IN RUSSIAN LITERATURE OF THE 19 CENTURE. *Science and innovation*, 2(B2), 52-54.
6. Sevara, S., & Nigina, B. (2022). Degrees of Comparison of Adjective Names in Russian and Uzbek Languages. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 105-108.
7. Juraboyev, B. B. U. (2021). Problems and solutions for online teaching and learning of foreign languages. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 2).
8. Qodirberganovna, A. N. РОЛЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ И СТУДЕНТОВ В КОММУНИКАТИВНОМ МЕТОДЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКА В КЛАССЕ THE ROLE OF TEACHERS AND STUDENTS IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING CLASSROOM. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 45.
9. Adamboeva, N. (2023). ASPECTS OF AXIOLOGICAL LINGUISTIC ANALYSIS. Collection of scientific papers «SCIENTIA», (March 10, 2023; Valencia, Spain), 163-166.

10. Qodirberganovna, A. N. (2023). Representation of Maximums in Axiolinguistic Evaluation of Politeness Category in Uzbek and English Languages. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(6), 39-41.
11. Samarova, S. (2018). Forming Creative Vision of Person as Universal Method Enhancing Creativity. *Eastern European Scientific Journal*, (6).
12. Samarova, S. R. (2019). Methods and technologies for the development of creative thinking of pupils. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7(10), 37-43.
13. Mirzayeva, M. M. (2020). The problem of the formation of creative abilities of students in foreign psychology. *An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1937-1943.

